



"РАСПИКЛАЙМАН"
Марғилон шаҳар Ҳалқ таълими бўлими мудири

Г.Н. Каюмова

"30" май 2022 йил

Марғилон шаҳри

"Фуқаролар ташаббаси жамғармаси" маблағлари хисобидан 13-умумий ўрта таълим мактаби биносини капитал таъмирлаш ишларини бажариб бериш ҳизмати бўйича техник ҳизмат кўрсатиш шартлари

I. 13-умумий ўрта таълим мактаби биносини капитал таъмирлаш ишларини бажариб бериш ҳизмати бўйича техник ҳизмат кўрсатиш шартлари

№	Асосий маълумотлар	Асосий маълумотлар ва талаблар мазмуни
1	Буюртмачи хакида маълумотлар	Номи: Марғилон шаҳар ҳалқ таълими бўлими Манзил: Милтиқоз МФЙ Б.Марғилоний кўчаси 80-й Телефон: + 99891-676-2178
2	Асос	Ҳалқ депутатлари Марғилон шаҳар кенгашининг 2022 йил 14 апрел кунги VI-51-39-11-168-K/22-сонли карори
3	Товар (иш, ҳизмат)лар хакида тўлиқ маълумотлар	Бўлим тасарруфидаги 13-умумий ўрта таълим мактаби биносини капитал таъмирлаш ишларини бажариб бериш
4	Хизматлар рўйхати	Хизмат кўрсатувчига товар (иш, ҳизмат)лар хакида маълумот бериш. Шартнома шартларига ва мижознинг талабига мувофик ишлаш ва кафолат муддати бериш. Буюртмачига шартнома мажбуриятлари хакида маълумот бериш
5	Молиялаштириш манбаси	"Фуқаролар ташаббаси жамғармаси" маблағлари
6	Хизмат кўрсатиш шартлари	Иш, ҳизматларни тақдим етиш ва уни шартнома бўйича белгиланган муддатдан кечиктирмасдан бажариш, амалдаги техник шартларга мувофик ҳизматларни самарали тақдим етиш.
7	Танлов иштирокчиларига кўйиладиган асосий талаблар	1) Ўзбекистон Республикасида конун ҳужжатларида белгиланган тартибида давлат рўйхатидан ўтган бўлиши; 2) Шартнома тузиш учун ҳукукий ваколат; 3) Камида 5 (беш) шартнома муваффакиятли бажарилиши учун шартноманинг мавжудлиги; 4) Иш, ҳизматларни бажариш бўйича лицензияларнинг мавжудлиги.
8	Таклифни таъминлаш кафолати	1) Танлов иштирокчиси кўйидаги тартиб бўйича "Энг яхши таклифларни танлаш" орқали савдога кўйилган эълон суммасининг 1% микдоридаги закалат тўловини амалга ошириши лозим: - иштирокчи ўз таклифини амал килиш муддати давомида, депозит шаклида, накд пулсиз шаклда мижознинг жорий ҳисобварағига ёки ОПТ баёнотида тасдиқланган мижоз фойдасига берилган банк кафолатига ўтказиш орқали кафолат бериши керак, 2) Танлов ғолибининг закалат тўлови буюртмачи билан конуниш шартнома тузилгунга кадар буюртмачининг ихтиёрида бўлади. Шундан сўнг, етказиб берувчи шартнома шартларини бажариш орқали закалат тўловини кайтариб олиши ёки кайта ҳисоб-китоб килиш мумкин. 3) Танлов ғолибининг закалат тўлови қўйидаги холларда кайтариб берилмайди: - Танлов ғолиби аникланиб, лекин буюрмачи билан тегишли шартнома тузилмаган ёки имзоланмаган холларда, - Таклиф бериш муддати тугаган вактдан сўнг танлов ғолиби томонидан ўз таклифини кайтариб олган холларда.

9	Танлов иштирокчиларига кўйидаги холларда танловда иштирок этишга рухсат берилмайди	<p>1) Барча белгиланган талабларга жавоб бермаганда;</p> <p>2) Мижозлар билан илгари тузилган шартномалар бўйича ўз зиммасига олган мажбуриятларни тўлик бажармаганда;</p> <p>3) Кайта ташкил этиш боскичида бўлганда;</p> <p>4) Солик ва бошка мажбурий тўловларни тўлашда карздорлик мавжуд бўлганда;</p> <p>5) Танловда иштирок этиш учун зарур ҳужжатларни белгиланган муддатда тақдим етмаганда;</p> <p>6) Буюртмачи билан судлашув бўлайтганда;</p> <p>7) Инсофисиз ижрочиларнинг ягона реестри рўйхатдан топилганда;</p> <p>8) Етказиб берувчилар ва бюджет ташкилотларидан муддати ўтган карздорлик мавжуд бўлганда.</p>
10	Хизматларнинг сифат кафолатлари доирасига кўйиладиган талаблар	<p>1) Товар (иш, хизмат)ларни ўз вактида ва сифатли етказиб бериш;</p> <p>2) Зарур бўлганда, тегишли малакали мутахассисларни жалб килиш;</p> <p>3) Товар (иш, хизмат)лар етказиб берилгандан сўнг, буюртмачига керакли ҳужжатларни тўлик тўпламини тақдим этиш;</p> <p>4) Буюртмачи томонидан ошкор қилинган маълумотларнинг маҳфилиги, шунингдек барча материаллар ва таҳлилий маълумотлар, режалар, графикалар, жадваллар ва хизматларни тақдим этишда тузилган ва/ёки ишлатилган бошка матнли ва график материалларнинг маҳфилигини сир саклаш;</p> <p>5) Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилиги билан тартибга солинадиган хизматлар кўрсатиш тартиби ва шартларига риоя килиш.</p>

II. Нарх қисми

1	Тўлов шартлари	Олдиндан 30% тўлов
2	Тўлов пул бирлиги	Ўзбек сўмида
3	Таклифнинг амал килиш муддати	5 (беш) кун
4	Товар (иш, хизмат)ларни етказиб бериш муддати	10 (үн) кун

III. Шартнома лойихаси

Танлов иштирокчиси товар (иш, хизмат)лар етказиб бериш шартномасининг ўз версиясини (ложихасини) илова килиш хукукига эга

Техник шартларни тайёрлади:

X.Мансуров

Харид килиш бўйича маъсул ходим:

Г.Мўйдинова



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
«SHAHARSOZLIK HUJJATLARI EKSPERTIZASI»
DAVLAT UNITAR KORXONASI

Фарғона вилояти

150115 Farg'ona shahri, Al-Farg'oniy 36-uy tel 73)-244-68-81 244-68-82 mail: fergexp@rambler.ru

www.mc.uz



Holati: Ijobiy

Direktor: MADMAROV KUDRAT YAXIYADJANOVICH

Sana: 29-08-2022 yil

Yig'ma ekspert xulosasi № 58992

Obyekt nomi «Farg'ona viloyati, Marg'ilon shaxri XTB tasarrufidagi 13-sonli mактаб binosini mukammal ta'mirlash»

Buyurtmachi - "Vodiy Maxsus Loyiha" MCHJ

Bosh loyihachi - "Vodiy Maxsus Loyiha" MCHJ

Litsenziya 06.08.2020y/AL-001320

Moliyalashtirish manbai - Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi va byudjet mablag'lari xisobidan

Bosh pudratchi - Tender savdolari asosida (agar qaror qabul qiluvchi organ tomonidan belgilangan bo'lsa)

Qurilish turi Mukammal ta'mirlash

Murojaat raqami: № 52446

1. Loyihalash uchun asos

1.1. Xalq deputatlari Marg'ilon shaxar Kengashining 14.04.2022 yil kungi VI-51-39-11-168-K/22-sonli Qarori.

1.2. Marg'ilon shaxar xalq ta'limi bo'limi mudiri G.Qayumova tomonidan tasdiqlangan Loyiha topshirig'i.

1.3. "Farg'ona Loyiha Qurilish Ta'mirlash" MCHJ tomonidan 2022 yilda berilgan bino va inshootlarning texnik xolati xulosasi

1.4. «O'zGASHKLITI» DUK Andijon viloyati tomonidan 2022 yilda berilgan ob'yektning muxandislik-geologiya xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar

2.1. Loyixa tarkibiga ko'ra elektron yo'naliishda taqdim qilingan loyixa smeta xujjatlari.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni

3.1. Ishchi loyihaga doir ma'lumotlar.

12 ochkoli xojatxona qurilishi. AC qismi.

Loyixa 380 mm qalinlikdagi g'ishtdan yasalgan 12 ochkoli xojatxona qurishni nazarda tutadi va ikki qismga bo'lingan: erkaklar va ayollar bo'limlari.

Xojatxonaning o'lchamlari 7,2 x5,6 metr, poldan shiftgacha bo'lgan balandligi 3,5 metr.

- poydevor - monolit tasmasimon, beton V15;
- devorlar - pishgan g'ishtdan qalinligi 380 mm, rastvor markasi M25;
- tom yopmasi - yog'ochdan 150x150 mm, uzunligi = 3400 mm;
- pol qismi - loyixaga muvofiq keramik plitkalar;
- shiftlar - namlikka chidamli gipsokartadan.
- derazalar - individual alyuminiy profillar;
- eshiklar - individual alyuminiy profillar;
- tom qismi - yog'och konstruksiyali, profnastil.
- ichki pardozlash - suvoq ishlari va vodoemulsiya bilan rang berish;
- tashqi pardozlash - suvoq ishlari va vodoemulsiya bilan rang berish;
- sokol qismi - itallogranit bilan qoplanadi;
- otmostka - betondan, qalinligi 100 mm va eni 70 sm.

Texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar

Qurilish maydoni	- 68,75 m ²
Qurilish xajmi	- 288,75 m ³
Foydali maydon	- 68,75 m ²

12 ochkoli xojatxona. VK qismi.

Loyiha KMK 2.04.01-98 "Suv ta'minoti va kanalizatsiyaning ichki tarmoqlari" normalariga asoslanadi. Loyihada xojatxona suv ta'minoti va kanalizatsiya tarmoqlarini o'matish ko'zda tutilgan. Sovuq suv markazlashgan, oxiri berk. Suv ta'minoti tizimi suv ta'minoti tarmog'idan olinadi. Tarmoq GOST 52134-2003 Du=32-42 mm ga muvofiq polietilen quvurlardan tayyorlanadi. Quvurlar bino devorlariga ochiq va yopiq xolda yotqiziladi. (loyixaga qaralsin)

Issiq suv ta'minoti- Elektron suv isitgich (Ariston). V=30 litr, V=50 litr, xajmdagi Aristonlar o'rnatilishi ko'zda tutilgan. Tarmoq Du=15 mm polipropilen quvurlardan tayyorlangan.

Kanalizatsiya - oqova suvlarni ichki maydondagi oqava suv qudug'iga oqizish bilan bajariladi. Tarmoq GOST 22689-89 Du=50-100 mm ga muvofiq kanalizatsiya polietilen quvurlardan tayyorlanadi. Quvurlar polda yashirin va ochiq yotqiziladi. Loyixa arxitektura loyixa topshirig'iga qo'ra KMK 2.04.01-98 «Vodosnabjeniye. Narujnyye seti i soorjeniya», KMK 2.04.03-97. «Kanalizatsiya. Narujnyye seti i soorjeniya» larga asoslanib ishlab chiqildi.

Sovuq suv ta'minoti-maishiy va ichimlik maqsadida, markazlashtirilgan. Tarmoq Du 32 mm va 20 mm polietilen quvurlardan tayyorlanadi. Tarmoqning chuqurligi -1,20 m. quvurlar qalinligi 0,10 m bo'lgan mavjud tuproqning yumshoq qatlamlari asosiga yotqiziladi.

12 ochkoli xojatxona. Elektr qismi.

Xojatxona binosining elektr yoritilishini loyixalash me'moriy-qurilish chizmalari asosida amaldagi me'yor va qoidalarga muvofiq amalga oshirildi.

Tarmoq kuchlanishi 220 V. Loyihada ichki va tashqi elektr ta'minoti joylashuvi ko'zda tutilgan. Loyihada ishchi yoritish tizimi o'rnatilishi ko'rsatilgan. Yoritish chiroqlari xojatxonani konstruktiv xususiyatlari va

tashqi muxit xususiyatlariga ko'ra tanlab olingen. Elektr yoritish tizimi uchun svetodiod yoritgichlarlar qabul qilingan. Yoritish tizimining tarqatish tarmoqlari APPV va APV rusumli simlar bilan, devordagi shtukaturka qatlami ostida amalga oshirilgan. Elektr qurilmalarning barcha metall tok o'tkazmaydigan qismlari yerlatiladi. Buning uchun tashqi va ichki yerlatish konturi inobatga olingen. Tarmoqlarning neytral simlari va qo'shimcha neytral simlar yerlatish o'tkazgichlari sifatida ishlataladi. Barcha elektr ishlar PUE, QMQ va PTB bo'yicha bajarilishi kerak.

4. Loyihalanayotgan ob'ektning muhandislik ta'minoti:

Binoni i ventilyatsiya, elektr energiyasi, suv, oqava va boshqa muxandislik tizimlari loyiha topshirig'iga muvofiq jixozlangan. (Elektron taqdim etilgan albomlarda batafsil ko'rsatilgan).

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

5.1. Marg'ilon shaxar xalq ta'limi bo'limi mudiri G.Qayumova tomonidan tasdiqlangan Loyiha topshirig'i.

6. Ekspertiza natijalari.

6.1. Loyixa smeta xujjatlari ekspertiza ko'rígiga buyurtmachining texnologik, ichki muxandislik, energiya tejamkorlik va boshqa yechimlari izoxlarsiz taqdim etilgan.

6.2. Ekspertiza jarayonida mahalliy (lokal) ekspert xulosalarining izoxlariga muvofiq loyixa smeta xujjatlari kiritilgan kamchiliklar va tuzatishlar loyixachi tomonidan ko'rib chiqildi va tuzatildi. (Biriktirilgan lokal ekspertiza xulosalaridagi faylda batafsil ko'rsatib o'tilgan).

6.3. Buyurtmachi jami xarajati, materiallar qiymati, ish xaqqi 12114,89 sum/chelchas (ijtimoyi sug'urta siz) va pudratchining boshqa xarajatlari 19,39% buyurtmachi xatiga asosan qabul qilindi.

Buyurtmachi tomonidan quydagi obyekt jami bo'lib 262 990,964 ming so'm taqdim etilgan.

Tekshiruv natijasiga ko'ra quydagi ko'rsatgichlar tavsiya etiladi:

Qurilish qiymati QQS siz	- 200 265,169 ming so'm
QQS 15%	- 30 039,775 ming so'm
Qurilish qiymati QQS bilan	- 230 304,945 ming so'm
Buyurtmachining xarajatlari	- 4 972,165 ming so'm
Jami obyekt qiymati QQS va buyurtmachi xarajatlari bilan	- 235 277,110 ming so'm
Iqtisod qilingan mablag'	- 27 713,854 ming so'm

6.4. Kamayish qurilish mashinalarini va mexanizm va ba'zi materiallar qiymati sozlash xisobiga amalga oshirildi .

6.5. Jixozlar qiymati buyurtmachi kompetensiyasiga kiradi

6.6. Import qilingan uskunalar va materiallarning narxi ekspertiza tomonidan ko'rib chiqilmagan.

6.7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 yanvardagi 15-sонли qaroriga muvofiq 4-ilova, II bob 8-band va SHNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma'lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma'lumotlarning ishonchiligi bo'yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo'yicha) yuklatiladi.

7. Xulosalar.

- 7.1. Farg'ona viloyati, Marg'ilon shaxri XTB tasarrufidagi 13-sonli maktab binosini mukammal ta'mirlash, smeta xujjatlari ekspertiza tekshiruv natijalarini hisobga olgan holda ko'rib chiqib, tasdiqlashga tavsiya etiladi.
- 7.2. Vazirlar Mahkamasining 11.06.2003 yildagi 261-sonli qarori va SHNK 4.01.16-09 ga muvofiq, tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi.
- 7.3. Ko'rsatilgan narxni tanlov savdolari uchun qabul qilish to'g'risida buyurtmachi qaror qabul qiladi.

Bosh mutaxassis: TASHTEMIROVA SHOXISTA MAXAMATJONOVNA